



Rustamov Jahongir Ikrom o'g'li
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodimi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'P FARZANDLILIKNI BELGILOVCHI OMILLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada reproduktiv yoshdagi ayollar orasida oiladagi farzandlar sonini belgilovchi omillar, oilalarning ijtimoiy, iqtisodiy va demografik holatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследования факторов, определяющих число детей в семье у женщин репродуктивного возраста, а также изучения социально-экономических и демографических условий семей.

Annotation. This article presents the results of a study of factors that determine the number of children in a family in women of reproductive age, as well as the study of the socio-economic and demographic conditions of families.

Kalit so'zlar: tug'ilish, ko'p farzandlilik, oila, omillar, demografik holat, sotsiologik so'rov.

Ключевые слова: рождение, многодетность, семья, факторы, демографическая ситуация, социологический опрос.

Keywords: birth, large families, family, factors, demographic situation, sociological survey.

Kirish. So'nggi yigirma yil davomida O'zbekiston Respublikasida tug'ilishlar sonining ko'payishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkichning urushdan keyingi davrdan boshlab 1990-yillarning boshlarigacha bo'lgan dinamikasidan farqli o'laroq, uning ko'rsatkichlarida kuzatilgan o'sish bir tekis emas. XXI asrning boshidan boshlab tug'ilish darajasining rivojlanishida uchinchi to'lqin qayd etilishi mumkin. 2000-yillarning birinchi yarmida tug'ilishlarning yillik soni 508 000 dan 540 000 gacha o'zgarib turdi, bu o'tgan chorak asrdagi

eng past ko'rsatkichlarga to'g'ri keldi¹. Shundan so'ng, 2005-yildan 2011-yilgacha bo'lgan birinchi to'liq davomida tug'ilishlar soni mos ravishda 22% ga o'sib, 534 mingdan 651 ming (2009)gacha yetdi. 2011-yildan 2017-yilgacha kuzatilgan ikkinchi to'liq bu ko'rsatkichning 18 foizga – 623 mingdan 734 minggacha (2015-yil) tug'ilganlar o'sishiga olib keldi. Biz hozirda tug'ilishning uchinchi to'liqini davom etayotganiga guvoh bo'lib turibmiz. Ayni paytda, xususan, 2017-yildan 2021-yilgacha tug'ilishlar soni qariyb 27 foizga oshib, 716 mingdan 905 ming bolaga yetgan. Shunday qilib, bugungi O'zbekistonda 1990-yillar boshidagi (1991–1993-yillar)ga nisbatan sezilarli darajada ko'p bolalar tug'ilmoqda, o'sha paytda tirik tug'ilganlarning yillik soni birinchi marta 700 mingdan oshgan edi².

2010-yillarning o'rtalariga qadar reproduktiv salohiyat – o'zbek ayollarining soni va yosh tarkibi hamda ularning tug'ilish darajasi deyarli uzluksiz o'sib bordi. Keyin birinchi ikkita to'liq reproduktiv salohiyatning doimiy o'sishi fonida tug'ilishning umumiy darajasidagi tebranishlarning natijasi bo'ldi. Birinchi to'liq davrida tug'ilishning umumiy koeffitsiyentida uning butun reproduktiv davrida bir ayolga 2,37 dan 2,64 gacha vaqtinchalik o'sish kuzatildi. Ikkinchi to'liq davrida ushbu ko'rsatkichning qiymati 2,18 dan 2,47 tirik tug'ilganga o'sdi, uchinchi to'liqda esa tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti har bir ayolga 2,40 dan 3,17 gacha ko'tarildi va o'sishda davom etmoqda.

Tug'ilishning so'nggi o'sishi shunchalik katta ediki, u reproduktiv salohiyatning doimiy pasayishini to'liq qopladi, ya'ni an'anaviy ravishda eng ko'p tug'ilishni (40 ga yaqin) tashkil etadigan 20 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan yosh guruhidagi ayollar soni (umumiy tug'ilishning qariyb 40 foizini tashkil etardi) ulushining kamayishiga olib keldi. Oxirgi besh yil ichida ushbu yosh guruhidagi ayollar soni 15 foizga kamaydi.

Tug'ilishlar soni ko'payishining dastlabki ikki to'liqini eng muhim reproduktiv yoshdagi ayollar sonining nisbatan sezilarli darajada ko'payishi bilan tug'ilish umumiy darajasining biroz notekis rivojlanishi bilan izohlanishi mumkin bo'lsa-da, bola tug'ish intensivligining oshishi natijasida paydo bo'lgan uchinchi to'liqni demografik nazariya nuqtayi nazaridan asosli tushuntirish ancha qiyin vazifa bo'lib tuyuladi³.

Tug'ilishning so'nggi o'sishi shunchalik katta ediki, u reproduktiv salohiyatning doimiy pasayishini to'liq qopladi, ya'ni an'anaviy ravishda eng ko'p tug'ilishni (40 ga yaqin) tashkil etadigan 20 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan yosh guruhidagi ayollar soni (umumiy tug'ilishning qariyb 40 foizini tashkil etardi) ulushining kamayishiga olib keldi. Oxirgi besh yil ichida ushbu yosh guruhidagi ayollar soni 15 foizga kamaydi.

¹ Оналик ва болаликни ҳимоя қилиш масалалари бўйича қонун ҳужжатлари тўплами. –Тошкент.: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси, 2004. - Б. 113-114. (Жами 656 бет) Шарқ нашриёти.

² Ўзбекистон Миллий Архиви, 37-фонд, 1-рўйхат, 2569-иш, 22-варақ.

³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг тиббиёт соҳасидаги долзарб масалалар муҳокамасига бағишланган йиғилишдаги нутқи. // “Халқ сўзи”. 2017 йил 13 декабрь.

2022-yilning bahorida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti mutaxassislari, O‘zbekistondagi mustaqil ekspertlar, Pragadagi Karlova universiteti demograf va sotsiologlari hamda UNFPAning O‘zbekistondagi vakillari bilan hamkorlikda o‘zbekistonlik ayollarning reproduktiv xulq-atvorini o‘rganish bo‘yicha tanlanma tadqiqot konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Oldingi davrlarda tug‘ilishning rivojlanishi, shu jumladan, so‘nggi o‘n yillikda tug‘ilish aholining oddiy ko‘payish darajasiga tushishi, umuman olganda, tug‘ilishning ilgari kuzatilgan tendensiyalar demografik o‘tish nazariyasiga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan taqqoslanadigan davlatlar tajribasiga muvofiq ro‘y berdi⁴.

Shunday qilib, bu biz hozir ko‘rayotgan tug‘ilishlar sonining ko‘payishini umuman belgilab bermadi. Bundan tashqari, mamlakatda kuzatilgan tug‘ilish darajasining o‘shishini kompensatsion deb hisoblash qiyin, chunki tug‘ilishning oldingi pasayishi kompensatsion o‘shishni keltirib chiqargan darajada dinamik yoki chuqur bo‘lmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ushbu hodisaning sabablari to‘g‘risidagi savolga ilmiy asoslangan javob berishga harakat qilish kerak. O‘zbekistonlik ekspertlar bilan 2018-yildagi statistik ma‘lumotlar asosida 2019-yilda boshlangan munozaralar tug‘ilishlar soni asosli taxminlardan sezilarli darajada og‘ishayotgani ilk marta ma‘lum bo‘lganidan buyon haligacha aniq bir fikrga olib kelmadi. Muhokamalarning samaradorligiga qaramay, ularning natijalari qo‘shimcha savollarni keltirib chiqardi, javoblar, asosan, spekulativ, ya‘ni tug‘ilishning kuzatilayotgan rivojlanishi omillarini aniqlash va real baholashdan ko‘ra ko‘proq dastlabki farazlar darajasida edi. Shu bois, 2022-yil boshida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Aholishunoslik jamg‘armasi (UNFPA) ning O‘zbekistondagi vakolatxonasi yuqoridagi savolga javob beradigan tanlanma so‘rovni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaror qildi.

2022-yilning bahorida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti mutaxassislari, O‘zbekistondagi mustaqil ekspertlar, Pragadagi Karlova universiteti demograf va sotsiologlari hamda UNFPAning O‘zbekistondagi vakillari bilan hamkorlikda o‘zbekistonlik ayollarning reproduktiv xulq-atvorini o‘rganish bo‘yicha tanlanma tadqiqot konsepsiyasi ishlab chiqildi.

So‘rov 2022-yilning yoz oylarida o‘tkazildi. 2022-yilning oktabr-noyabr oylarida to‘plangan ma‘lumotlar qayta ishlanib, tahlil qilindi. So‘ng natijalar to‘rtta davlat – O‘zbekiston, Chexiya, Ukraina va Qozog‘istondan kelgan tadqiqotchilar va ekspertlar guruhi tomonidan muhokama qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Respublikaning barcha hududiy birliklari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrida

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон Фармони 1-илоvasida келтирилган “2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”.

4125 nafar reproduktiv yoshdagi ayollar orasida oiladagi farzandlar sonini belgilovchi omillar, oilalarning ijtimoiy, iqtisodiy va demografik holatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqot o'tkazildi.

Sotsiologik tadqiqotda birlamchi ma'lumotlar to'plash metodi sifatida **so'rov usulining intervyu** shaklidan foydalanildi.

Tadqiqot obyektni reprezentativlik tamoyili asosida mamlakatning barcha hududiy birliklarini qamrab olgan maqsadli guruh (shahar va qishloq joylarida istiqomat qiladigan 16-46 yoshdagi xotin-qizlar) tashkil etdi.

Tanlash usuli. Tanlanma to'plam hajmi **4 125 nafar** respondentni, jumladan, ulardan **1926 nafari** shahar, **2 199 nafari** qishloqda istiqomat qiladigan respondentlarni tashkil etib, **15 ta** shahar, **33 ta** tuman, **204 ta** mahallani, **31 ta** yosh kogortalari (1976 yildan 2006 yilgacha bo'lgan davrda tug'ilgan, ya'ni 16-46 yosh)ni qamrab oldi. Tanlash reprezentativlik asosida ko'p bosqichli tartibda o'tkazilib, uning mezonlari sifatida hudud, shahar/tumanlarda yashaydigan ayollar soni olindi.

Birinchi bosqichda hududiy birliklarda shahar/tumanlarni tanlash **tasodifiy-ehtimoliy bo'lmagan tanlash** asosida hududning geografik, etnik, madaniy bo'linishi bo'yicha amalga oshirildi. Aholisi ko'p bo'lgan hududlardan **4 ta tuman/shahar**, aholisi kam bo'lgan hududlardan esa **3 ta tuman/shahar** tanlab olindi.

Ikkinchi bosqichda mahallalarni tanlash shahar joylarida tasodifiy tanlash, qishloq joylarida esa yarim-tasodifiy tanlash orqali, ya'ni tuman markazidan olisda joylashgan mahallalar orasidan tasodifiy tanlash usuli yordamida amalga oshirildi.

Uchinchi bosqichda uy xo'jaliklarini tanlash tasodifiy tanlashning mexanik usuli (qadam orqali tanlash) orqali amalga oshirildi. Tanlangan har bir mahallada xonadonlarni tanlashda 3 raqami qadam sifatida olindi.

To'rtinchi bosqichda esa dastlab respondentlarni tanlash ko'zda tutilgan yosh kogortalari asosida oiladagi reproduktiv yoshdagi xotin-qizni tasodifiy tanlash orqali, so'ngra esa muayyan yosh kogortasini tanlashni maqsad qilib qo'ygan tasodifiy bo'lmagan tanlashdan foydalanildi. Bitta uy-xo'jaligidan 1 nafar respondent tanlandi.

Intervyuerlar uchun joylarda tadqiqotni o'tkazish bo'yicha yo'nalish varaqasi tayyorlandi va shu asosida intervyuerlar mahalla, uy-xo'jaligi va respondentlarni tanlashni amalga oshirishdi.

Asosiy qism. **Ko'p farzandlilikni belgilovchi omillar.** O'zbekistonda ko'p farzandlilikning asosiy omilini an'anaviy tafakkur tarzida shakllangan farzandlarning, ayniqsa, o'g'il farzandlarning ota-ona farovon keksaligining tayanchi, asosi sifatida ko'rilishi bilan izohlash mumkin.

Tanlanma to'plam hajmi 4 125 nafar respondentni, jumladan, ulardan 1926 nafari shahar, 2 199 nafari qishloqda istiqomat qiladigan respondentlarni tashkil etib, 15 ta shahar, 33 ta tuman, 204 ta mahallani, 31 ta yosh kogortalarini qamrab oldi.

Respondentlardan ko'p farzandli bo'lishning asosiy sababi so'ralganida, ularning ota-onalarga keksalikda tayanch bo'lishi holati asosiy omil sifatida aksariyat ayollar tomonidan aytib o'tildi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ayrim holatlarda oilada o'g'il farzand ko'rish istagi farzandlar sonining ko'p bo'lishiga olib keluvchi asosiy omil hisoblanadi. Chunki o'g'il farzand azaldan Markaziy Osiyo, jumladan, o'zbek xalqida nasl davomchisi va merosxo'r sifatida gavdalanadi⁵.

Qo'shimcha omillar sifatida ko'p farzandlilikning oila mustahkamligiga (32,2 %), farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta'siri (19,7 %), qarindosh va atrofdagilar singari ko'p farzandli bo'lish istagi (12,3 %), diniy e'tiqod (9,0 %) hamda rejalashtirilmagan homiladorlik (4,3 %) holatlari namoyon bo'ldi.

Qayd etish lozimki, javoblarda diniy omil ko'p holatlarda farzandlar sonining ko'p bo'lishida qo'shimcha omil sifatida baholangan bo'lsa-da, **har o'ninchi (10,6 %) respondentning mazkur omilni asosiy omil sifatida ham baholagani jamiyatda diniy me'yor va qadriyatlarning o'rni ortib borayotganidan dalolat berishi mumkin.**

1-jadval

Ko'p farzandlilikning asosiy va qo'shimcha omillari (foiz hisobida)

Agar siz to'rt yoki undan ortiq bola tuqqan yoki tug'ishni xohlasangiz, bunga sabab bo'lgan omillarni ko'rsating		
Omillar	Asosiy	Qo'shimcha
Diniy e'tiqod	10,6	9,0
Farzandlar ota-onalarga keksalikda tayanch bo'ladi, degan ishonch asosida	53,1	22,4
Qarindosh va tanishlarda ko'p farzand bo'lgani sababli	3,3	12,3
Serfarzandlilik bolalarni yaxshiroq tarbiya qilishga imkon beradi	6,0	19,7
Bolalarning ko'pligi oilamni mustahkamlaydi	24,5	32,2
Homiladorlik rejalashtirilmagan edi, ammo abort qilmadim	2,5	4,3
Jami	100,0	100,0

Savolnomada diniy omilni baholash maqsadida qator savollar qo'yilgan bo'lib, uning javoblari natijasida ayollar o'rtasida diniy e'tiqod ko'p hollarda milliy qadriyat va an'anaviy tafakkur tarzi elementi sifatida namoyon bo'lib, reproduktiv xulq-atvorini belgilab bermasligini ko'rsatdi.

Xotin-qizlarning 85 foizi farzandli bo'lishni rejalashtirishida diniy e'tiqodlarning ta'siri bo'lmaganini e'tirof etishgani mamlakatda aksariyat

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон Фармонининг 1-илоvasida келтирилган “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”.

ayollarning reproduktiv xulq-atvoriga diniy omil birlamchi ta'sirga ega emasligini, e'tiqod ularning tafakkur tarzida o'z ifodasini topgan bo'lsa-da, farzandlar sonini rejalashtirishdagi qarorlarida aksariyat holatlarda aks etmasligini namoyon qilmoqda.

Olingan natijalarga ko'ra, ayollar mavjud diniy amallardan ro'za tutish amalini nisbatan ko'proq (52,6 %) holatlarda bajarishadi. Shu bilan birgalikda, har uchinchi respondent doimiy ravishda 5 mahal namoz o'qish (32,4)ga, imkoniyat bo'lganida Qur'on va boshqa diniy manbalarni mutolaa qilish (33 %)ga harakat qiladi. 44 foiz holatlarda oilalarda diniy tarbiya berilmaganini aniqlandi.

“Siz nechta farzandli bo'lishni istaysiz?” degan savolga “Xudo qancha bersa, shuncha bo'lgani yaxshi”, deb javob bergan ayollarning ichida ham aksariyati o'z farzandlarini dunyoga keltirishlarida diniy omil muhim rol o'ynamaganini javoblar orqali ko'rish mumkin.

2-jadval

**Ayollarning kundalik hayotlarida diniy amallarni bajarish
borasidagi fikrlari (foiz hisobida)**

Savollar	Ha (doimo)	Imkoniyat bo'lganida	Yo'q
Qur'on yoki boshqa diniy manbalarni o'qiyasizmi?	18,5	33,0	48,5
5 mahal namoz o'qiyasizmi?	32,4	16,3	51,3
Ro'za tutasizmi?	52,6	22,7	24,7
Diniy kiyim (hijob) kiyasizmi?	10,0	1,8	88,1
Oilada diniy tarbiya olganmisiz?	26,9	29,0	44,0
Farzandli bo'lish to'g'risidagi qaroringizga diniy e'tiqodingizning ta'siri bo'lganmi?	11,4	3,4	85,2

Aytib o'tish kerakki, o'zbek xalqida kelajak va kelajakda sodir bo'lishi lozim bo'lgan hodisalarga nisbatan “Xudo xohlasa”, “Nasib bo'lsa”, “Xudo qancha bersa, shuncha” deb aytish oilada ta'lim va tarbiya davomida o'rgatiladi hamda u nafaqat diniy e'tiqod ko'rsatkichi, balki shu bilan birga, yillar davomida shakllangan an'anaviy milliy stereotip hisoblanadi.

Jamiyatda nikoh qurilganida, odatda, oilalarning maqomi (statusi) va qadriyatlari inobatga olinishi natijasida ota xonadoni va yangi oilada ayollarning e'tiqod borasidagi xulq-atvori bir-biriga monandligi ko'zga tashlandi.

3-jadval

Ayollarning farzand ko'rishida diniy omilning o'rni borasidagi fikrlari (foiz hisobida)

Farzandli bo'lish to'g'risidagi qaroringizga diniy e'tiqodning ta'siri bo'lganmi?	Sizningcha, oilada nechta farzand bo'lgani ma'qul?		
	Xudo qancha bersa shuncha bo'lgani yaxshi		
	Ha, doimo	75	8,8%
	Ha, imkoniyat bo'lganda	30	3,5%
	Yo'q	743	87,6%
	Jami	848	100,0%
	(Birinchi farzand ko'rishdan oldin) Nechta farzand ko'rishni rejalashtirgansiz/rejalashtirmoqdasiz?		
	Xudo qancha bersa shuncha bo'lgani yaxshi		
	Ha, doimo	81	12,4%
	Ha, imkoniyat bo'lganda	29	4,4%
	Yo'q	543	83,2%
	Jami	653	100,0
	Yana qancha farzand ko'rishni rejalashtirmoqdasiz?		
	Xudo qancha bersa shuncha bo'lgani yaxshi		
	Ha, doimo	47	12,4%
	Ha, imkoniyat bo'lganda	12	3,2%
	Yo'q	378	84,4%
	Jami	848	100,0%

Olingan natijalarga ko'ra, ayollarning aksariyati oldingi (otalik) va hozirgi oilasida imkoniyat doirasida (mos ravishda 72,3 % hamda 67,4 %) diniy me'yorlarga amal qilishga harakat qilishi aniqlandi. Mazkur ko'rsatkichlardagi kichik farq ayrim oilalarning zamonaviylashuvi holati bilan izohlanishi mumkin. Diniy me'yorlarga qat'iy amal qiluvchilar har ikki holatda qariyb 5 foizni, umuman amal qilmaydiganlar esa mos ravishda 7,4 va 8,6 foizni tashkil etdi.

Aksariyat o'zbek oilalarini to'liq oilalar tashkil etgani (er va xotinning birgalikda yashashi) hamda er-xotinning oilada o'z ota va onalik vazifalarini bajarishi tug'ilishlar soniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.


Tadqiqotda qatnashgan turmush qurgan ayollarning 80,4 foizi ayni paytda turmush o'rtoqlari bilan istiqomat qilishadi, 19,5 foizi esa alohida yashaydi.

Ayollarning o'z reproduktiv xulq-atvorini o'zi belgilashi, oilada nechta farzand ko'rishni rejalashtirishi holati ularning ma'lumotlilik darajasi yuqori bo'lishi barobarida o'sgani mamlakatdagi xotin-qizlarning ta'lim (ma'lumotlilik) darajasi oiladagi farzandlar soni borasida ratsional qarorga kelishiga ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Shunga ko'ra, farzandlar soni o'zining qaroriga bog'liq emasligi holati boshlang'ich va to'liqsiz o'rta ma'lumotli ayollarda eng yuqori ko'rsatkichni namoyon qildi (37,2 %). O'rta ma'lumotli xotin-qizlarda

bu ko'rsatkich 29,3 foizni, o'rta maxsus ma'lumotlilarda 29,9 foiz va oliy ma'lumotli respondentlarda 26,5 foizni tashkil etdi.

Siz voyaga yetgan va hozirgi oilada (agar tug'ilgan oilangizda yashamayotgan bo'lsangiz) diniy me'yorlarga qay darajada amal qilingan?



1-rasm. Otalik va hozirgi oilalarida ayollarning diniy me'yorlarga amal qilishi borasidagi fikrlari (foiz hisobida)

Azaldan Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlarga serfarzandlilik xususiyati xos bo'lgani sababli, oilalarda 7 va undan ko'p farzand ko'rish tabiiy holat sifatida ko'p uchragan. Mazkur holat o'zbek xalqining an'anaviy turmush tarzi va milliy mentalitetining o'ziga xos jihati sanaladi. Tadqiqot natijalari asosida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakat ayollarining ma'lumotlilik darajasidan qat'iy nazar, aksariyat ota-onalar 3 va 4 farzandli bo'lishni istashgani, jamiyatda saqlanib kelayotgan an'anaviy tafakkur va turmush tarzi (ko'p farzandlilik), zamon talabi hamda iqtisodiy omilning o'zaro ta'siri va natijasi sifatida shakllangan eng maqbul holat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shunga ko'ra, oiladagi farzandlar soni borasida oliy ma'lumotli ayollarning har ikkinchisi 3 va 4 farzand bo'lishini ma'qul ko'rishsa, bu borada o'rta maxsus ma'lumotli, o'rta ma'lumotli va boshlang'ich/to'liqsiz o'rta ma'lumotli respondentlarning fikrlari 2-3 foiz farq bilan o'xshash natijani ko'rsatdi.

Jamiyatda 3 va 4 nafar farzand ko'rishni istovchilar ulushi nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan bo'lsa-da, ikki farzand bitta oila uchun yetarli ekanini ma'qul ko'ruvchilar ham borligi kelajakda ma'lumotlilik darajasi, ayollarning bandligi ta'sirida ularning ham miqdori o'sishi borasida bashorat qilish mumkin.

Olingan natijalarga ko'ra, har yettinchi respondent (15,3 %) 2 nafar farzand bitta oila uchun yetarli degan fikrni bildirgan. Bunda ayollarning boshlang'ich va to'liqsiz o'rta ma'lumotli ayollarga nisbatan ma'lumoti yuqori bo'lgan ayollarning ulushi nisbatan ko'pligi kuzatildi.

4-jadval

Ayollarning ma'lumotlilik darajasi hamda oiladagi farzandlar soni borasidagi fikrlari (foiz hisobida)

Farzandlar soni	Boshlang'ich/to'liqsiz o'rta	O'rta	O'rta maxsus	Oliy	Jami
1 nafar		1,0	0,9	1,1	0,9
2 nafar	10,1	14,9	15,8	16,7	15,3
3 nafar	20,8	21,3	21,3	26,6	22,1
4 nafar	27,5	30,5	29,8	26,8	29,5
5 nafar	1,9	2,3	1,8	2,0	2,0
6 nafar	2,4	0,8	0,5	0,3	0,7
7 nafar		0,1	0,1		0,0
8 nafar			0,1	0,2	0,0
10 nafar	0,5				0,0
Xudo qancha bersa, shuncha bo'lgani yaxshi	16,4	20,3	21,7	19,2	20,6
Erim istagancha		2,2	2,0	0,5	1,7
Bilmadim yoki bu haqda o'ylamaganman	20,3	6,8	6,2	6,8	7,2

Xulosa. O'zbekistonda xotin-qizlarning aksariyati farzandlar soni 3-4 nafar bo'lishini ma'qul ko'rishi, ular orasida 4 nafar farzandni dunyoga keltirishni rejalashtirganlar ulushi nisbatan ko'pligi hamda farzandlar sonini rejalashtirishda ayollarning an'anaviy tafakkur tarzi (60,1 foizi ko'p bolali oilalarda tarbiyalangan) muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

O'zbekistonda har ikkinchi ayolning **2 tadan 4 tagacha** va undan ko'p farzand ko'rishni rejalashtirishi, qolganlarining esa bu borada o'z taqdiriga va turmush o'rtog'ining xohishiga tayangan holda farzand ko'rishni istashini aytganlari keyingi yillarda ham mamlakatda demografik o'sish sur'ati barqaror saqlanib qolishidan darak beradi.

Jamiyatda 3 va 4 nafar farzand ko'rishni istovchilar ulushi nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan bo'lsa-da, ikki farzand bitta oila uchun yetarli ekanini ma'qul ko'ruvchilar ham borligi kelajakda ma'lumotlilik darajasi, ayollarning bandligi hamda iqtisodiy omil ta'sirida ularning ham miqdori o'sishi borasida bashorat qilish mumkin. Ammo mazkur jarayon ayollar va ularning turmush o'rtoblari, oila a'zolari tafakkur tarzining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgani uchun uzoq yillarni talab etadi.

O'zbekistonlik xotin-qizlarning deyarli yarmi oilada farzandlar sonini rejalashtirmagani ko'p farzandlilikka sabab bo'luvchi, shuningdek, ayollar salomatligiga, umr davomiyligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholanishi mumkin. Ko'p farzandlilikning ayol salomatligiga salbiy oqibatlarining oldini olish maqsadida nafaqat ayollar bilan, balki oilalar bilan tushuntirish ishlarini olib borish hamda farzanlar sonini rejalashtirishning muhimligini tushuntirish maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda ko'p farzandlilikning asosiy omili an'anaviy tafakkur tarzida shakllangan farzandlarning, ayniqsa, o'g'il farzandlarning ota-ona farovon keksaligining tayanchi, merosxo'r va nasl davomchisi sifatida ko'rilishi bilan ham izohlash mumkin.

Ko'p farzandlilikning oila mustahkamligiga (32,2 %), farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta'siri (19,7 %), qarindosh va atrofdagilar singari ko'p farzandli bo'lish istagi (12,3 %) diniy e'tiqod (9,0 %) hamda rejalashtirilmagan homiladorlik (4,3 %) holatlari qo'shimcha sabablar sifatida namoyon bo'ldi.

Jamiyatda nikoh qurilganida, odatda, oilalarning maqomi (statusi) va qadriyatlari inobatga olinishi natijasida ota xonadoni hamda yangi oilasida ayollarning e'tiqod borasidagi xulq-atvori bir-biriga monandligi ko'zga tashlandi.

Aksariyat o'zbek oilalarini azaldan yirik va to'liq oilalar tashkil etgani (er va xotinning birgalikda yoki qarindoshlar bilan yashashi) hamda er-xotinning oilada o'z ota va onalik majburiyatlarini bajarishi tug'ilishlar soniga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi ko'rsatkich sifatida baholanishi mumkin.

Mamlakat ayollarining ma'lumotlilik darajasidan qat'iy nazar, aksariyat er-xotin 3 va 4 farzand bo'lishini istashgani, saqlanib kelayotgan an'anaviy tafakkur va turmush tarzi (ko'pfarzandlilik), iqtisodiy omilning o'zaro ta'siri va natijasi sifatida jamiyatda shakllangan eng maqbul holat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Rejalashtirilmagan homiladorlikdan saqlanish borasidagi bilimsizlik holati turmushga chiqmagan qizlar orasida ko'pligi oiladagi tarbiya davomida qizlarni turmushga tayyorlashda shu jihatga e'tibor qaratilmasligi hamda qizlarning turmushga chiqqunga qadar mazkur masalani o'rganish ehtiyojining yo'qligi bilan izohlanmoqda. Bu holat oiladagi tarbiya davomida mazkur holatga e'tibor berish lozimligini ko'rsatmoqda.

Oilalar qurgan xotin-qizlarning to'rttadan uchasi (76,5 %) homiladorlikdan saqlanishi mamlakatda sog'liqni saqlash tizimi orqali aholi sog'lom turmush tarzi, ayollar salomatligi doirasida olib borilayotgan chora-tadbirlar, tashviqot ishlari, ko'rsatilayotgan bepul yordam, kontratseptiv vositalar borasida ma'lumot berish va ularni

Ko'p farzandlilikning ayol salomatligiga salbiy oqibatlarining oldini olish maqsadida nafaqat ayollar bilan, balki oilalar bilan tushuntirish ishlarini olib borish hamda farzanlar sonini rejalashtirishning muhimligini tushuntirish maqsadga muvofiq.

tarqatish natijasi sifatida baholangan bo‘lib, keyingi tadqiqotlar davomida ham mazkur jarayonni atroflicha o‘rganishga turtki beradi.

Iqtisodiy holatidan qat’iy nazar va uni inobatga olmagan holda, har uchinchi respondent 4 ta farzand ko‘rishni istashi keyinchalik oilaning moddiy jihatdan ayrim qiyinchiliklarga uchrashiga olib kelishi, xotinqizlar o‘z reproduktiv xulq-atvorini rejalashtirganda iqtisodiy omilni inobatga olish zarurati borasida ijtimoiy reklama va roliklar orqali tushuntirish ishlari olib borish.

Bugungi kunda 1 tadan 3 tagacha farzandi bor oilalarda moddiy holat nisbatan barqarorligi, 4 nafar farzandga ega bo‘lgan ayollar oilaning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda ayrim qiyinchiliklarga uchrayotgani O‘zbekiston uchun 2 va 3 nafar farzand ko‘rish oilalarning moddiy holati va demografik o‘sish nuqtayi nazaridan maqbul holat ekanligini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Оналик ва болаликни ҳимоя қилиш масалалари бўйича қонун ҳужжатлари тўплами. –Тошкент.: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси, 2004. - Б. 113-114. (Жами 656 бет) Шарқ нашриёти.*
2. *Ўзбекистон Миллий Архиви, 37-фонд, 1-рўйхат, 2569-иш, 22-варақ.*
3. *Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг тиббиёт соҳасидаги долзарб масалалар муҳокамасига бағишланган йиғилишидаги нутқи. // “Халқ сўзи”. 2017 йил 13 декабрь.*
4. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон Фармонининг 1-иловасида келтирилган “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”.*
5. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон Фармонининг 1-иловасида келтирилган “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси”.*
6. *Абдурахмонов Қ.Х. Абдураманов Х. Х. Демография //Ўқув қўлланма–Т.: Ношир. – 2011. –Т. 200.*
7. *Abduramanov H. H., Honturayev B. B. Ways to eliminate problems with early marriage and premature birth.*
8. *Abduramanov K. K., Ibragimov L. Z. Regional characteristics of demographic development in the republic of uzbekistan //SEA: Practical Application of Science. – 2015. – Т. 3. – №. 1.*
9. *Abduramanov K., Dekhkanov S. Experience of foreign countries in the prevention of early marriage and early childbirth //InterConf. – 2021.*
10. *Khamid A. Ўзбекистон республикасида янги демографик вазиятнинг шаклланиши хусусиятлари //Архив научных исследований. – 2019.*
11. *Hamid A., Shaxnoza A. O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ERTA NIKOH HOLATINI BARTARAF ETISHNING SAMARALI MEXANIZMLARI //Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 770-784.*
12. *Jakhongir R. CAUSES OF EARLY MARRIAGES AND EARLY BIRTHS AND THEIR CONSEQUENCES //Open Access Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 03. – С. 99-104.*